



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI *2023-yil yanvar-sentabr*



SAMARQAND VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023-yil 1-oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra **4 186,1** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **67,9** ming kishiga yoki **0,9** foizga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1 535,8** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,7 %**), qishloq aholisi soni **2 650,3** ming kishi (**63,3 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

4 186,1 ming kishi

Tabiiy o'sish

+70,9 ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar




36,7 %

Qishloq



63,3 %

Aholining tabiiy harakati, ming kishi




Samarqand viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2023-yil yanvar-sentabr



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2023-yil 1-oktabr holatiga



2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisining mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar soni **33,6 %**, mehnatga layoqatli yoshdagilari **55,4 %** va mehnatga layoqatli yoshdan kattalari **11,0 %** hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi


2023-yil 1-yanvar holatiga




2023-yil 1-yanvar holatiga Samarqand viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **260,3 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib **70,7 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **241,3 ming kishini** tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni **78,9 ming kishini** tashkil etgan.

Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

2023-yil 1-yanvar holatiga




2023-yilning 1-yanvar holatiga Samarqand viloyati aholisining kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **73,7 yoshni** tashkil etgan. Erkaklar uchun **71,3 yoshga**, ayollar uchun esa **76,1 yoshga** teng. Shahar joylari **75,4 yosh**, qishloq joylari uchun kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **72,0 yoshni** tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi
2023-yil 1-oktabr holatiga

Doimiy aholi sonining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi
1-oktabr holatiga, ming kishi

	2022-yil	2023-yil	O'sish sur'ati, %
Viloyat bo'yicha	4 094,6	4 186,1	102,2
Samarqand sh.	570,2	582,5	102,2
Kattaqo'rg'on sh.	93,0	94,6	101,7
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	168,0	172,2	102,5
Bulung'ur	196,3	200,9	102,3
Jomboy	183,6	188,4	102,6
Ishtixon	268,6	274,4	102,2
Kattaqo'rg'on	286,4	292,3	102,1
Qo'shrabot	138,4	141,2	102,0
Narpay	222,3	226,4	101,8
Payariq	265,1	271,7	102,5
Pastdarg'om	372,9	381,0	102,2
Paxtachi	149,4	151,9	101,7
Samarqand	265,8	271,5	102,1
Nurobod	158,5	161,7	102,0
Urgut	541,7	555,6	102,6
Toyloq	214,4	219,8	102,5

Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi

2023-yil 1-oktabr holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Samarqand viloyatida 2023-yil 1-oktabr holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **249,6** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **5,4** kishiga ortgan (2022-yilda 1 kv.km.ga **244,2** kishi).


Shahar va tumanlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Kattaqo'rg'on shahrida **9 460,0** kishi, Samarqand shahrida **4 854,2** kishi, Toyloq tumanida **785,0** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Nurobod tumani **33,3** kishi, Qo'shrabot tumani **65,4** kishi, Paxtachi tumani **110,1** kishini tashkil etgan.

Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi

1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR




Tug'ilganlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart



Yanvar-iyun



Yanvar-sentabr



Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti 2023-yil yanvar-sentabr, kishi




Urgut	12 881	31,3 ‰
Samarqand sh.	10 184	23,6 ‰
Pastdarg'om	7 649	27,1 ‰
Payariq	6 252	31,0 ‰
Kattaqo'rg'on	5 748	26,5 ‰
Ishtixon	5 696	28,0 ‰
Samarqand	5 219	25,9 ‰
Toyloq	4 707	28,9 ‰
Bulung'ur	4 294	28,8 ‰
Jomboy	4 231	30,3 ‰
Narpay	4 064	24,2 ‰
Oqdaryo	3 706	29,0 ‰
Paxtachi	3 103	27,5 ‰
Nurobod	3 096	25,8 ‰
Qo'shrabot	3 082	29,4 ‰
Kattaqo'rg'on sh.	1 617	23,0 ‰

2023-yil yanvar-sentabr oylarida **85,5** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **27,5** promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan **0,6** promillega ko'payganligi kuzatildi (2022-yilda **26,9** promilleni tashkil etgan).


VAFOT ETGANLAR



Vafot etganlarning taqsimlanishi




Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti 2023-yil yanvar-sentabr, kishi



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida **14,6** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,7** promilleni tashkil etgan (2022-yilning yanvar-sentabr oylarida **4,8** promille bo'lgan).


O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

2023-yil yanvar-sentabr, kishi



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining **58,4** foizi – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **7,1** foizi – o'simtalardan, **6,7** foizi – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **5,2** foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,2** foizi – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **0,8** foizi – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **17,6** foizi boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR



Nikohlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart

Shahar

1 697



31,9 %

Qishloq

3 619



68,1 %

Yanvar-iyun

Shahar

3652



35,3 %

Qishloq

6 684



64,7 %

Yanvar-sentabr

Shahar

7 219



34,8 %

Qishloq

13 508




65,2 %

Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti


2023-yil yanvar-sentabr, birlik

Urgut	2 842	6,9 ‰
Samarqand sh.	2 672	6,2 ‰
Pastdarg'om	1 843	6,5 ‰
Payariq	1 518	7,5 ‰
Kattaqo'rg'on	1 494	6,9 ‰
Samarqand	1 403	7,0 ‰
Ishtixon	1 288	6,3 ‰
Toyloq	1 141	7,0 ‰
Bulung'ur	1 062	7,1 ‰
Narpay	1 043	6,2 ‰
Jomboy	933	6,7 ‰
Oqdaryo	863	6,8 ‰
Paxtachi	789	7,0 ‰
Qo'shrabot	694	6,6 ‰
Nurobod	686	5,7 ‰
Kattaqo'rg'on sh.	456	6,5 ‰



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida **20,7** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,7** promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilga nisbatan **0,7** promillega kamayganligi kuzatildi (2022-yilning yanvar-sentabr oylarida **7,4** promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR






Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2023-yil yanvar-sentabr, birlik

Samarqand sh.	667	1,5 ‰
Pastdarg'om	356	1,3 ‰
Samarqand	292	1,4 ‰
Urgut	269	0,7 ‰
Payariq	234	1,2 ‰
Kattaqo'rg'on	230	1,1 ‰
Narpay	192	1,1 ‰
Ishtixon	182	0,9 ‰
Jomboy	167	1,2 ‰
Toyloq	166	1,0 ‰
Paxtachi	160	1,4 ‰
Bulung'ur	144	1,0 ‰
Kattaqo'rg'on sh.	117	1,7 ‰
Oqdaryo	112	0,9 ‰
Nurobod	100	0,8 ‰
Qo'shrabot	86	0,8 ‰


Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi



2023-yil yanvar-sentabr oylarida **3,5** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilga nisbatan **0,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2022-yil yanvar-sentabr oylarida **1,3** promille bo'lgan).


Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2023-yil yanvar-sentabr



2023-yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda jami nikohdan ajrashganlarning **54,4** foizi farzandsiz, **22,9** foizi bitta farzand bilan va **22,7** foizi ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti



Viloyat bo'yicha nikohdan ajrashganlarning soni 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida **3 474** kishini, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etgan.

AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)

2023-yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar soni 8 653 kishini tashkil etdi.

Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni 11 780 kishini, migratsiya saldosi minus 3 127 kishini tashkil etdi (2022-yil yanvar-sentabr oylarida minus 4 087 kishini tashkil etgan).

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni (yanvar-sentabr)

(kishi)

	2022-yil			2023-yil		
	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi
Viloyat bo'yicha:	7 053	11 140	-4 087	8 653	11 780	-3 127
Samarqand sh.	2 994	1 836	1158	3 962	2 252	1710
Kattaqo'rg'on sh.	289	637	-348	353	477	-124
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	365	386	-21	432	455	-23
Bulung'ur	254	646	-392	286	589	-303
Jomboy	251	341	-90	254	353	-99
Ishtixon	290	782	-492	289	779	-490
Kattaqo'rg'on	450	779	-329	344	799	-455
Qo'shrabot	244	651	-407	243	722	-479
Narpay	182	545	-363	214	601	-387
Payariq	270	875	-605	424	963	-539
Pastdarg'om	458	656	-198	415	713	-298
Paxtachi	17	880	-863	313	889	-576
Samarqand	560	581	-21	584	640	-56
Nurobod	117	445	-328	102	386	-284
Urgut	46	861	-815	202	901	-699
Toyloq	266	239	27	236	261	-25

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayiriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 66-235-72-35